

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRLIKNI BOSHQARISH USULLARINI  
INNOVATION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**Muallif: Tajibayeva Gulchexra Sadriddinovna**

*gulchehra914@gmail.com*


**Annotasiya:** Maqolada kichik biznes va tadbirkorlikni boshqarish usullarini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek kichik innovatsion biznes faoliyatini amalga oshirish orqali kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish modeli ishalb chiqilgan hamda innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy takliflar berilgan.

Kichik biznes sub'ektlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishdan ko'zlangan maqsad, xalqaro va mahalliy milliy iqtisodiyot tarmoq sohalari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni tashkil etish hamda samarali natijadorlikka erishishdan iborat. Bu esa innovatsion faoliyatni shakllantirishda moliyaviy yoki tashkiliy qiyinchiliklarni hal qilish bilan erishiladi. Ma'lumki, kichik biznes sub'ektlari, ilm-fan, ta'lim, innovatsion infratuzilma sub'ektlari va mahalliy hokimiyat organlari orqali samarali o'zaro hamkorlikka erishish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-oktyabrdagi PQ-331-sonli qarori<sup>106</sup>ga asosan kichik biznes sub'ektlarida kichik innovatsion biznes faoliyatini amalga oshirish orqali kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish modeli taklif etiladi. O'zaro hamkorlikning bunday modeli moslashuvchanlik, aloqa kanallarini rivojlantirish va uning barcha tarkibiy qismlari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun zamonaviy talablarga javob berishi talab etiladi. Biroq, mazkur jamoalarmi model tarkibiga kiritish, samarali foydalanishda ularning o'zaro hamkorligini shakllantirish, asosan, ushbu tizimda markaziy bo'g'in vazifasini o'taydigan kichik biznes sub'ektlarida kichik innovatsion biznes faoliyatini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Qo'shma samarali qarorlar qabul qilish va kelishilgan innovatsion qarash modelning maqsadlarga birgalikda erishishni ta'minlaydi. Modelning tuzilishi 1-rasmida keltirilgan.

Bizga ma'lumki, kichik biznes sub'ektlari doimo mahsulot ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va sof foyda miqdorini oshirishni o'z oldilariga maqsad qilib oladilar. SHunday ekan, ular o'z faoliyatlari davomida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, yangi va takomillashgan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazishning eng qulay sharoitlarin yaratish, amalda

<sup>106</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-oktyabrdagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-331-sonli qarori

foydalani layotgan texnologiyalarini modernizatsiyalash va yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyatga joriy etish hamda mahsulot ishlab chiqarish uzlusizligini ta'minlashni nazarda tutuvchi faoliyatni joriy etish natijadorlikni asosi qilib oladilar.



**1-rasm. Kichik innovatsion biznes faoliyatini amalga oshirish orqali kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish modeli<sup>107</sup>.**

<sup>107</sup> Muallif ishlanmasi.

Amaliyotda kichik biznes sub'ektlarining mahalliy hokimiyat organlari bilan o'zaro hamkorligi davlat-xususiy sheriklikni (keyingi o'rnlarda DXSH deb yuritiladi) tashkil etish yo'li bilan yo'lga qo'yiladi. Innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional tizimini takomillashtirish orqali innovatsion faol kichik biznes sub'ektlari ulushini oshirish nazarda tutiladi.

Ushbu hamkorlikni yo'lga qo'yishdan maqsad, kichik innovatsion biznes faoliyatining kichik biznes sub'ektlari, mahalliy hokimiyat organlari bilan o'zaro munosabatlarning dolzarbligini ilmiy, amaliy asoslab berishdan iborat. Buning uchun biz munitsipalitet (mahalliy o'z-o'zini idora qilish organi) va kichik biznesning bir qator manfaatlarini ajratib ko'rsatdik.

Kichik biznes sub'ektlari doimiy ravishda moliyalashtirish manbalarini hamda qulay bozor konyunkturani izlashda bo'lganligi sababli, taklif etilayotgan vositalar bu muammoni ma'lum darajada hal qilishga yordam beradi. SHu asosda kichik biznes sub'ektlariga moliyaviy yordam ko'rsatishning yangi usullari shakllantirilishi mumkin, bu esa kichik biznes sub'ektlarida kichik innovatsion biznes faoliyati rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

DXSH yordamida kichik biznes sub'ektlarida kichik innovatsion biznes faoliyatini rivojlantirishga e'tiborni quyidagi tarzda shakllantirish mumkin:

- munitsipal tuzilmalari va kichik biznes sub'ektlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida shartnoma tuzish;

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun mahalliy hududlardagi ishlab chiqarish massivlaridagi ob'ektlarni keyinchalik sotib olish bilan moliyaviy lizing shartnomasi yoki ijara shartnomasini tuzish;

- infratuzilma ob'ektlaridan foydalanish huquqini beruvchi shartnomalarni tuzish;

- mahalliy hokimiyat organlari kichik biznes sub'ektlarida kichik innovatsion biznesni rivojlantirishga qaratilgan hududiyl dasturlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish.

Fikrimizcha, DXSH doirasida kichik biznes sub'ektlari va munitsipal hokimiyat organlari o'rtasidagi hamkorlik quyidagi usullar asosida amalga oshiriladi:

1. Kichik innovatsion biznes faoliyati asosida kichik biznes sub'ektlari tomonidan yaratilgan innovatsion mahsulotlar belgilangan tartibda tegishli mahalliy organlardan ro'yxatdan o'tib, sotuvni amalga oshiradi.

2. Kichik biznes sub'ektlarida kichik innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish natijasida yaratilgan yangi

innovatsion mahsulotni ishlab chiqargan holda uni tijoratlashtirishni amalga oshirishdan daromad oladi.

3. Kichik biznes sub'ektlari kichik innovatsion biznes faoliyati bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi va hamkorlik shartnoma munosabatlari amal qilish muddati davomida innovatsion mahsulot hamda texnologiyalarni ishlab chiqarish, tijoratlashtirish hamda joriy etish natijasida daromad oladi.

4. Kichik biznes sub'ektlari kichik innovatsion biznes faoliyati bo'yicha shakllangan daromadlar manbaini yangi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va hamkorlik shartnoma munosabatlari amal qilish muddati davomida yangi innovatsion mahsulot, texnologiyalar hamda loyihalarni yaratishga yo'naltirish.

SHunday qilib, DXSH hamkorlarning teng huquqliligi, shartnomaviy munosabatlarning barqarorligi, shartlarni bajarish uchun mas'uliyatni oshirish, qayta aloqa, shaffoflik va kichik innovatsion biznes faoliyatini rag'batlantirish tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Ushbu shartlarni hisobga olgan holda, bizning fikrimizcha, kichik innovatsion biznes quyidagi afzallikkarga ega bo'ladi:

- kichik biznes sub'ektlari rentabellik ko'rsatkichlarining oshishiga turki beruvchi iqtisodiy samaraga erishiladi;

- tashqi investitsiya mablag'lari bo'lgan ehtiyojning kamayishi hisobiga kichik biznes sub'ektlarining o'z mablag'lari manbalarini kengaytirish bo'yicha shart-sharoitlar yaratiladi;

- iste'molchilar tanlovini qondirish hisobiga kafolatlangan mahsulotlarni yetkazib berish bozorini ta'minlash;

- mahalliy byudjet daromadlar manbaini oshirish imkoniyati;

- mahalliy hokimiyat organlarining kichik biznes sub'ektlari kichik biznes innovatsion faoliyatidagi ishtiroki tufayli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortishiga erishiladi.

Shu bilan birga, bugungi kunda kichik biznes sub'ektlari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi davlat-xususiy sheriklik hamkorligi to'liq bajarilmayapti. Ushbu hamkorlikni yanada rivojlantirishni ta'minlash uchun milliy innovatsion tizim tarkibida "Kichik innovatsion tizim faoliyati xizmati"ni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki mamlakat milliy innovatsion tizim tarkibida bunday xizmat mavjud emas.

Modelning muhim tarkibiy qismi ilm-fanga yo'naltirilgan bo'lib, uning kichik biznes sub'ektlari bilan o'zaro aloqasi qo'shma ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, shu jumladan kichik biznes innovatsiyalarini rivojlantirishda ilmiy hamjamiyatning ishtiroki bilan ifodalanishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu

yo'nalish faoliyat doirasini kengaytirish uchun boshqa moliyaviy imkoniyatlarga ega kichik innovatsion biznes faoliyati ishtirokini ham qo'shish kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 24-iyuldag'i "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-sonli Qonuni. <https://www.lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyovning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Мирзаев К.Н. Развитие инновационной деятельности в субъектах малого предпринимательства, производящих обувь // 56-я Международная научно-техническая конференция преподавателей и студентов, ВИТЕБСК, Белоруссия, 2023 год, 233-235 с.
4. Mirzaev K.N. The economic significance and importance of efficiency in the development of small business entities // scientific and technical journal of Namangan institute of engineering and technology, volume 7 issue 1, 2022, 288-294 r.